

LOBAR RUSTAMOVA HIKOYACHILIGIDA AYOL OBRAZI TALQINI

Kamola Egamberdiyeva

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Namangan davlat universiteti doktoranti, dotsent v.b.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18985145>

Annotatsiya: Mazkur maqolada Lobar Rustamova hikoyalarida ayol taqdiri, uning ruhiyatini hikoyalardagi aks ettirishi o‘rganilgan. Shuningdek, adabiyotshunoslikda ayol ruhiyatini, uning taqdirini tadqiq etish badiiy adabiyotning bosh xususiyatlaridan biri ekanligi tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: taraqqiyot bosqichlari, hikoya, ayol, badiiy adabiyot, ruhiyat, davr, taqdir.

Аннотация: В данной статье исследуется отражение судьбы женщины и её психики в рассказах Лобар Рустамовой. Также установлено, что в литературоведении изучение психики женщины и её судьбы является одной из главных особенностей художественной литературы.

Ключевые слова: этапы развития, рассказ, женщина, художественная литература, психика, эпоха, судьба.

Abstract: This article studies the reflection of the fate of a woman and her psyche in the stories of Lobar Rustamova. It is also studied that in literary studies, the study of the psyche of a woman and her fate is one of the main features of fiction.

Keywords: stages of development, story, woman, fiction, psyche, era, fate.

Kirish

Jahon adabiyotida, xususan, uning nasriy shaklida ayol yozuvchilar erkaklarga nisbatan kamchilikni tashkil etishi barchaga ma‘lum. Nasr nisbatan kechroq kirib kelgan Sharq, jumladan, o‘zbek adabiyotida ham shu holat ko‘zga tashlanadi. XX asr adabiyotimiz tarixidan ikki taniqli ayol nosiralar – Oydin va Saida Zunnunovalar munosib o‘rin olishdi. Namangan adabiy muhitida hikoyanavislikda Lobar Rustamova barakali ijod qilib kelmoqda.

Tabiiy savol tug‘iladi: Nega ayol hikoyanavislar soni oz? Javoblar turfa xil bo‘lishi mumkin. Taxminiy javoblardan bittasi: “Buning sababi nasrning she‘riy turga nisbatan o‘ziga xos murakkabligida”. Lobar Rustamova qalamiga mansub hikoyalar, birinchi navbatda, chuqur xalqchilligi bilan tavsiflanadi. Bunda, bir tomondan, oddiy ayollarning oson kechmayotgan kamtarona turmush tarzi, ijtimoiy, maishiy muammolari namoyon bo‘lib, ularning fonida ba‘zi noxush hodisalar ham ko‘rinish beradi. Ikkinchi tomondan esa, qorni chala to‘ysa ham yuksak axloqiy fazilatlarini boy bermaydigan ayollarning aql-zakovati va xayrli ishlari evaziga hikoya qahramonlari hayot sinovlarida ustun kelayotganliklariga guvoh bo‘lamiz. Bu qahramonlar, aksariyat, soddadil, ezguniyat ayollar, mehribonliklari evaziga ona tabiat bilan uyg‘unlashib ketishadi.

Uzoq vaqt jurnalistika sohasida faoliyat ko‘r-satgan Adiba Lobar Rustamovanning hikoyalarida publitsistik ruh kuchli, (ba‘zan ortiqchalik ham qilib ketadi). Ayni paytda, hikoyada badiiylikning quvvati ham yorqin ko‘zga tashlanadi. Masalan, “Qarigan araz” hikoyasiga murojaat qilaylik. Bunda oddiy ayollarning bir biriga mehribonliklari, donoligi atigi bir-ikki badiiy chizgilar bilan mohirona ifodalangan.

Adiba hikoya qahramonlarining ismi yo‘q, ertaklardagidek – Chol ila Kampir, qiz va yigit. Syujet hayotiy muammo asosiga qurilgan – bu ham bo‘lsa mazkur toifa ayollari turmushida uchrab turadigan kamxarjlik. Shu sabab bir umr inoq yashagan chol-kampir urishib qolishadi va buning natijasida xastalikka chalinishadi. Arazi qattiq bo‘lgan kampir, o‘zi yotib qolgan bo‘lishiga qaramay, buning ustiga, cholining oyoq og‘rig‘ini ko‘rib-bilib tursa ham, bir oydan ortiq eri bilan gaplashmaydi. Lekin, ayni paytda, ikkovlari ham, bir-birlariga jonlari achishib, ichla-ridan ezilishardi. Kampirning dilini, nihoyat, Navro‘z quyoshi ilitgandek bo‘ladi. Choli ko‘tarib kelgan bayram sovg‘asini qo‘liga olib, yuzko‘ziga surtar ekan, u chin dildan duo qiladi: “Iloyo tani-joningiz sog‘ bo‘lsin”⁸². Bu odatiy, oddiy duo emas, balki kampir yuragining tub-tubidan chiqqan mehr tomchilari. Kampirning yuragini ilitgan narsa cholining tuhfasi emas, albatta, balki Navro‘zda charaqlagan quyoshdir: “Uyga kiring, tamaddi qilamiz. Keyin oyog‘ingizga dori-darmon qilmasak bo‘lmaydi, bunaqada yotib qolasiz...”⁸³, – deydi u choliga.

⁸² Rustamova L. O‘shanda ham qish edi. –Namangan: “Iste‘dod nuri press”, 2021. – 43-55 b.

⁸³ O‘sha asar

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

Lobar Rustamova o‘z asari orqali kitobxonga yetkazmoqchi bo‘lgan g‘oya esa bahor kunlaridan birida daraxtga tikilib qolgan cholning ixchamgina, lekin faylasufona ma’noli ichki monologida ifodalangan: “Hademay barg yozadi, gullab meva tugadi... Har bahor daraxtlar qayta tug‘iladi. Insonchi? Tug‘ilish ham, o‘lish ham bir martagina berilgan unga. Shu birgina umr davomida ham qancha g‘am-anduh, tashvish, kasallik. Tag‘in ham inson bolasi hammasiga ko‘nadi-ya, ertangi kunga umid bilan yashaydi”⁸⁴.

Shaxsan biz uchun bu mo‘jaz hikoyaning qiymati – oddiy odamlarda ham katta qalb yashashini tasvirlanishida. Tomchida ham quyosh aks etadi, hatto, ummondagi-sidan ham jozibali ko‘rinadi...

Badiiy adabiyotning ahamiyati uning hayot voqeliklarini haqqoniy bo‘yoqlar bilan ishonarli tasvirlashdagina emas. U eski, azaliy masalalarni va turmushda uchrab turadigan muammolarning ba’zi noan’anaviy, kutilmagan yechimini yangicha bo‘yoqlarda namoyish qiladi. L. Rustamovaning “O‘g‘il” hikoyasini o‘qigach, bu narsaga yana bir bor amin bo‘ldik. Aniqrog‘i, biz bu hikoyani o‘qib, bir hayotiy voqeani esladim: Yosh oila erning noqobilligi, ichuvchiligi sabab otasiz qoladi. Yagona o‘g‘il yoshligidayoq buzilib ketadi. Yillar o‘tib, ulg‘aygan farzand biznesmen bo‘lib, onasi bilan boy-badavlat yashaydi. Ota esa ayanchli ahvolda. O‘g‘il unga sira ham yordam bermaydi, chunki onasi undan bevafo otaga qaramaslikni qat’iy talab qiladi, o‘g‘ilni shu ruhda tarbiyalagan bo‘ladi. Hatto, ba’zi tanish-bilishlar oraga tushsa ham farzand otaga qaramaydi... Bu – hayotiy tugun yechimini biz hali eshitmadik.

L. Rustamovaning “O‘g‘il” hikoyasi shunga o‘xshash hayotiy syujet asosiga qurilgan. Ammo bunda o‘g‘il, farzandini, hatto, tanimaydigan ko‘zlari ojiz ota o‘ta nochor ahvoldaligini bilgach, uni davolattiradi, og‘irini yengil qiladi, hatto, padarning keyingi oilasidan bo‘lgan ukalari bilan do‘stlashib ketadi. Otaning ikkinchi oilasidagi farzandlar bilan do‘stona munosabat qurishda esa onaning o‘g‘ilga bergan tarbiyasi sabab bo‘ladi, albatta. Bunday mehrga to‘la hikoyalar adibaning hikoyalari orasida talaygina. Har qanday sharoitda ham odamiylik fazilatlariga sodiq qolgan, sabrli, vijdonli, iymone’tiqodli ayollar timsoli kitobxon qalbiga yorug‘lik olib kiradi. Ana shunday ayollar borligi uchun ham hayot bardavomligiga ishora qiladi muallif.

Adibaning bugungi ijtimoiy hayotda avj olib borayotgan hasad tuyg‘usini insonlar aro fojeaviyligini shu qadar mahorat bilan tasvirlaydi. Bunga amin bo‘lish uchun yozuvchining “Sog‘inch” hikoyasini varoqlash kifoya. Chet mamlakatda ishlab, katta pul topib kelgan omadli do‘sti Farhodga nisbatan hasad tuyg‘usi Tohirga tinchlik bermaydi. Buning ustiga unga bir necha bor rad javobini bergan Zilola Farhodni tanlagani haqiqiy muhabbat nima ekanligini bilmagan “do‘st”ni qabohatga olib keladi... Farhod o‘lganiga to‘la ishonch bilan uning pullarini ham endi o‘ziniki bilgan Tohir yana Ziloladan, “marhum” do‘stining qallig‘idan umidvorlik qiladi, turli xiyla-nayranglar bilan o‘z maqsadiga erishmoqchi bo‘ladi. Lekin qiz muhabbatiga sodiq edi... Bu hikoyada yana ikkita oddiyning oddiysi bo‘lgan personajlar bor – ikki ko‘zi ojiz Basir bilan uning duduq xotini Ummat. rubobini chertib hikmatli g‘azallarni xirgoyi qiladigan erini Ummat “Chorsu” bozorida yetaklab yuradi. Himmatli kishilar ularga sadaqa qilishadi. Xuddi mana shu insonlarning xushyorligi, odamiyligi, pokqalbliligi tufayli daryo to‘lqinlari qirg‘oqqa chiqarib tashlagan, tanasida jon alomati sezilmayotgan yigit o‘ziga keladi... Bu Farhodjon edi... Kishining a’zoyi-badanini titratib yuboradigan o‘sha mash’um voqea tafsilotlar kitobxonni bir zum bo‘lsa-da, larzaga soladi. Lobar Rustamovaning mazkur hikoyasida eng esda qolarli, o‘quvchi qalbidan chuqur joy oladigan obrazlar bu Basir bilan Ummat, desa xato bo‘lmaydi. Yuqorida ta’kidlaganimiz, eski, azaliy syujetga yangicha talqinni mana shu personajlar olib kiradi. Kimlardir nafs yo‘lida odam joniga qasd qilishdan ham toymasa, daryo bo‘yidagi kulbasida, misoli sohilda yotgan ikki sovuq toshday oddiy yashayotgan bu ikki nogiron tilanchi qalbidan chiqqan mehr o‘ti evaziga Farhodning hayoti qutqarib qolinadi. Hikoyada bo‘lgan voqeadan ogoh etib qo‘yish maqsadida, hokimiyat darvozasiga hassasini to‘qillatib qiyinchilik bilan yetib kelgan Basirga posbon “Pasport bo‘lmasa kiritilmaydi” deb yo‘l bermagani ham o‘quvchi e’tiboridan qochmaydigan epizod. Bundan kitobxon o‘zi xulosa chiqaradi, albatta. Ushbu asarda tasvirlangan voqea – jinoyat natijasida, yoki tasodif bo‘libmi, daryoda oqib, es-hushini yo‘qotish va so‘ngra o‘zlikka qaytish mashmashalari jahon adabiyotida juda ko‘p uchraydigan hodisalardan biridir. Ba’zan mayda tafsilotlarigacha o‘xshash bo‘ladi bu “daydi” syujetlar. Adabiyotshunoslikda ba’zan “Tarix”da, jumladan, adabiyot tarixi davomida hamma gaplar allaqachon aytib bo‘lingan, hozirgi eshityotganlarimiz faqat “takror” degan fikr uchrab turadi. Bu, albattaki, adabiyotshunoslikka xos mubolag‘a. Ammo har qanday mubolag‘a ostida kichkina bo‘lsa ham bir haqiqat yotadi. Qolaversa, takrorda ham takror bor-da. Hamma gap, yozuvchi mazkur ko‘hna “tarix”ni nechog‘lik zamonbop qilib tasvirlay olganligida. Ushbu zamonaviy tasvir bizni o‘ziga rom eta oldimi? Lobar Rustamovaning hikoyasini misoli nafas chiqarmay o‘qiladi,

⁸⁴ O‘sha asar

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

Kitobxon miyasiga “takror” degan fikr kelmaydi. Qolaversa, bu yerda syujet yechimi kutilmagan, boshqa shunga o‘xshash asarlarda uchramaydigan ravishda sodir bo‘ladi. Qisqasi, Lobar Rustamova hikoyalarida mehr-oqibat, ayolni ayol qiluvchi ulug‘ fazilatlar tarannum etiladi. Axir, aslida ham dunyoni asrab turgan mehr-oqibat emasmi?! Ayolning ayolligi, bu dunyoda borligi – odamlarga, yurtga kerakligi, ziyoni emas, foydasi tekkanidagina ekani haqiqat-ku!

Ayni paytda Lobar Rustamova hikoyalarining mavzulari rang-barangligini ta’kidlash zarur. Bir zumdagina yoshlikdagi muhabbatiga qaytgan Halim ota va Risolat xola (“Bir juft lola”), falokat sodir etib, qochib yurgan Usmonjonni qiynagan vijdon azobi (“Uzoq kutil-gan orom”), mehrini, yoshligini, bor kuch-quvvatini berib, voyaga yetkazgan farzandlarining oqibatsizligidan iztirob chekkan Mehri buvi (“Mehri buvi qaytmaydi”), urush tufayli oilalarda yuz bergan fojialar, achchiq, iztirobli alamlar o‘rik timsolida berilishi, o‘sha kunlarga guvoh Shodmonbekning o‘ylari (“O‘lmas o‘rik”) kabi ko‘plab hikoyalar o‘quvchini o‘ylashga, mushohada qilishga, yaxshi-yomonni anglashga, ezgulikka xizmat qiladi.

L. Rustamovaning qahramonlari ko‘pchiligimizga tanishday ko‘rinadi. Bular atrofimizdagi zamondoshlar. Ayni paytda, mohir yozuvchi tasviridagi ularning hayotidan “Men kim, qanday yashashim kerak, ayol unvoniga munosib bo‘lish uchun nima qilish kerak?” – degan savollarga javob topganday bo‘ladi, kishi. Lobar Rustamova hikoyalari kitobxon qalbining bir chetini qoplab yotgan qorong‘ulik o‘rniga iliq yoruqlik kiradi. Goh xomush tortadi, goh ko‘zi yoshlanadi, goh mamnun bo‘ladi. Lekin zerikmaydi, ko‘ngli osoyish topadi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adabiyot nazariyasi. I jild. – Toshkent: Fan, 1978. – 416 b.
2. Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. Adabiy-tarixiy jarayon. II jild. – Toshkent: Fan, 1979. II jild. – 249 b.
3. Adabiy turlar va janrlar. Uch tomlik. 1-tom. – Toshkent: Fan, 1991. – 382 b.
4. Adabiy tur va janrlar (tarixi va nazariyasiga oid). 2-jild. Lirika. – Toshkent: Fan, 1992. – 248 b.
5. Abdullayeva Sh., Homidiy H., Ibrohimova S. Adabiyotshunoslik terminlarlug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1967. – 300 b.
6. Aristotel. Poetika. – Toshkent: Adabiyot va san‘at, 1980. – 152 b.
7. Boboxonov M. Ruhiy holat tasvirida qahramon portretining o‘rni //O‘zbek tili va adabiyoti. 2010. – 3-son.
8. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston NMIU, 2002. – 560 b.
9. Boltaboyev H. Nasr va uslub. – Toshkent: Fan, 1992. – 104 b.
10. Boltaboyev H. Teranlik maqolasi. Adabiyotimiz faxri to‘plami. – Toshkent: O‘zbekiston NMIU, 2007. – B. 202–213.
11. Boltaboyev H., Mahmudov M. Adabiy-estetik tafakkur tarixi. 2 jild. –Toshkent: Mumtoz so‘z, 2016. – 430 b.
12. Do‘stmuhammad X. Ijod – ko‘ngil munavvarligi. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2011. – 316 b.
13. Hamdam U. Jahon adabiyoti: modernizm va postmodernizm. – Toshkent: Akademnashr, 2020. – 288 b.
14. Jo‘rayev T. Ong oqimi modern. – Toshkent: Farg‘ona, 2009. – 204 b.
15. Rustamova L. O‘shanda ham qish edi. –Namangan: “Iste‘dod nuri press”, 2021. – 43-55 b.